



O'ZBEK SHE'RIYATIDA DISFEMIZMLARNING USLUBIY O'RNI

Nazokat Jiyanova Eshquvvatovna

*O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti O'zbek tili va adabiyoti kafedrasida dotsenti,
filologiya fanlari nomzodi,*

Yarmuxammad Madaliyev

*Muxtor Avezov nomidagi Janubiy Qozog'iston universiteti dotsenti,
filologiya fanlari nomzodi*

DOI <https://doi.org/10.5281/zenodo.14995192>

Annotatsiya: Ushbu maqolada o'zbek she'riyatida disfemizmlar, ularning badiiylikni oshiruvchi vosita sifatida qo'llanilishi, uslubiy vazifalar ilmiy va nazariy manbalarga tayangan holda tahlil etilgan. Jahon va o'zbek tilshunosligida disfemizizm terminiga ilmiy munosabatlar, olimlar tomonidan ma'lum bir turlar asosida o'rganilishi haqida fikr yuritilgan. Disfemizmlarning leksik birlik sifatidagi ma'nosi, undan foydalanish, jamiyat taraqqiyotidagi o'rni, disfemik ma'no turlari, so'kish, haqorat, qarg'ish, kinoya, masxara kabi xususiyatlarni ifodalashi, til birligi sifatida badiiy matndagi uslubiy vazifalari yoritilgan. Disfemizmlarning qadimdan mavjudligi, tarixi, jahon tilshunosligida til birligi sifatida o'rganila boshlangan davri, evfemizmlarga nisbatan kam o'rganilganligi haqida ma'lumotlar berilgan. Olimlar tomonidan disfemizmlarning ma'lum bir turlar asosida tahlil etishda xalq qarashlariga munosabat masalalari ham yoritilgan. Disfemizmlarning badiiy matnda qo'llanilishining o'ziga xos uslubiy jihatlari she'riyat misolida tahlil etilgan. Badiiylikni oshiruvchi vosita sifatida qo'llangan disfemizmlarni turlar asosida she'riyat misolida tahlil etish va o'rganish maqsadga muvofiq ekanligi ta'kidlangan.

Kalit so'zlar: disfemizizm, evfemizizm, badiiy vosita, disfemik ma'noli so'z, so'z-disfemizizm, zid ma'noli disfemizizm, monosemantik disfemizizm, polisemantik disfemizma, badiiy disfemizma, siyosiy tushunchali disfemizmlar.

Abstract: In this article, dysphemisms in Uzbek poetry, their use as a means of increasing artistry, methodological tasks are analyzed based on scientific and theoretical sources. In world and Uzbek linguistics, scientific relations to the term dysphemism, scientists have thought about the study based on certain types. The meaning of dysphemisms as a lexical unit, its use, its role in the development of society, types of dysphemic meaning, expression of features such as cursing, insult, cursing, sarcasm, mockery, and its methodological functions in the artistic text as a linguistic unit are highlighted. information is provided about the ancient existence of dysphemisms, their history, the period when they were studied as a language unit in world linguistics, and the fact that they are less studied than euphemisms. by scientists, in the analysis of dysphemisms on the basis of certain types, the issues of attitude to people's views were also covered. The specific methodological aspects of the use of dysphemisms in literary texts are analyzed on the example of poetry. It is emphasized that it is appropriate to analyze and study dysphemisms, which are used as a means of increasing artistry, on the basis of types, on the example of poetry.

Keywords: dysphemism, euphemism, artistic device, word with dysphemic meaning, word-dysphemism, dysphemism with opposite meaning, monosemantic dysphemism, polysemantic dysphemism, artistic dysphemism, dysphemisms with political connotations.

Аннотация: В статье на основе научно-теоретических источников анализируются дисфемизмы в узбекской поэзии, их использование как средства повышения



художественного качества и их методические задачи. В мировой и отечественной лингвистике существует научное отношение к термину «дисфемизм», и ученые рассматривают возможность его изучения на основе определенных типов. Рассматриваются значение дисфемизмов как лексической единицы, их употребление, роль в развитии общества, виды дисфемистического значения, выражение в них таких признаков, как брань, оскорбление, ругательство, ирония, насмешка, а также их стилистические функции в художественном тексте как языковой единицы. Приведены сведения о древнем существовании и истории дисфемизмов, о периоде начала их изучения как языковой единицы в мировой лингвистике, а также о том, что они изучены меньше, чем эвфемизмы. Ученые также подчеркивают проблемы общественного мнения при анализе дисфемизмов на основе определенных типов. На примере поэзии анализируются стилистические особенности использования дисфемизмов в художественных текстах. Подчеркивается, что анализ и изучение дисфемизмов, используемых в качестве средств усиления художественной выразительности, целесообразно проводить на примере поэзии, исходя из их типов.

Ключевые слова: дисфемизм, эвфемизм, художественный прием, слово с дисфемическим значением, слово-дисфемизм, дисфемизм с противоположным значением, моносемантический дисфемизм, полисемантический дисфемизм, художественный дисфемизм, дисфемизмы с политическим подтекстом.

Bizga ma'lumki, dunyo tilshunosligida ham o'zbek tilshunosligida ham ikki hodisa til birligi, lisoniy birlik sifatida o'rganilgan va o'rganilib kelinmoqda. Bular evfemizm va disfemizmlar bo'lib, nutqiy voqelikning o'ziga xos til ko'rinishlaridan biri sanaladi. Shuning uchun ham ularni o'rganish hamon dolzarbligicha qolmoqda. Chunku ular milliy mentalitetni ifodalab beruvchi til birligidir. Ayniqsa, badiiy va she'riy matnda berilish holati har bir millatning til madaniyati, til va ruhiyat olamining o'zaro bog'liqligini ifodalovchi vosita sifatida qo'llaniladi.

Bugungi kungacha olimlar tomonidan evfemizm va disfemizmlarning paydo bo'lishi, ular insonlarning aqliy tafakkuri va axloqiy qadriyatlari rivoji bilan bog'liq hodisa ekanligi ilmiy-nazariy qarashlar asosida tahlil etilgan. Olimlarning fikricha evfemizmlar nutqiy vaziyatni o'zgartirishga moyilligi sifatida namoyon bo'luvchi til birligi bo'lsa, disfemizmlar esa muloqot xulqini ifodalovchi vosita sifatida talqin etiladi. [2.3]. Har ikki hodisadan ham ko'chimga asoslangan nutqiy jarayon mahsuli sifatida foydalanamiz. Tilshunoslikda ular sinonimlik qatorni tashkil etuvchi va denotatga ma'lum bir konnotativ ma'noni yuklovchi til birligi sifatida o'rganiladi.

Olimlarning fikricha, tilshunoslikda disfemizm hodisasi kam o'rganilgan. Chunki ular insonlarning madaniy muloqot me'yorlari jarayonida odob niqtayi nazardan aytilishi mumkin bo'lmagan til birligi sifatida qaralgan. Shuning uchun ham disfemizmlar ilmiy jarayonda alohida o'rganish obyekti sifatida keng tahlil etilmagan. [2.38]. Bu leksema jahon tilshunosligida ham o'zbek tilshunosligida ham evfemizmlar bilan birgalikda qisman tahlil etilgan, xalos. Bu esa disfemizmlarni alohida til birligi (garchi qo'pol va nomadaniy birlik bo'lsa-da) sifatida o'rganish



zarurati mavjudligini ko'rsatadi. Chunki har bir millat til birligi sifatida ba'zan o'rni bilan qaysidir ma'noda kundalik muloqotda foydalanishadi. Shuning uchun ham dunyo olimlari tomonidan evfemizm va disfemizmlarni o'rganishga bo'lgan qiziqish mavjud.

Jahon tilshunosligida V.N.Yarseva lug'atida, Vidlak, Jelvis, Katsev, Allan, Giezek kabi olimlarning ilmiy izlanishlarida tahlil etilgan. Nomi zikr etilgan olimlar disfemizmlarning evfemizmlar bilan o'xshash tomonlari mavjudligini, ular denotatga qo'shimcha konnotativ (baho munosabatini) ifodalash uchun xizmat qilishini, disfemizmni til birligi sifatida sinonimlik qatorni tashkil etishini ta'kidlashgan. Bu birlik ham evfemizm kabi nutqiy hodisa sanaladi va alohida o'rganishni taqozo etadi. [2.38]. Bulardan tashqari, O.S.Axmanova, D.Lourenslar ham disfemizmni tahlil etishgan. Faqat A.N.Rezanova ingliz tilida qo'llanuvchi disfemizmlarni alohida til birligi sifatida o'rgangan.[1. 20]

Shuningdek, T.V.Boyko [4.56], T.S.Bushuyevalar disfemizmni evfemizm bilan birgalikda o'rganishgan bo'lishsa, jahon tilshunosligida O.V.Potapova belarus, rus va polyak tillarida qo'llanuvchi disfemizmlarni [6.114], I.P.Paseshnikova esa nemis tilida qo'llangan disfemizmlarni tahlil etishgan. [2.38]. Disfemizm bu denotatga subyektiv munosabatning manfiy tomoniga ketishi bilan bog'liq pragmatik hodisa. Disfemizmlik ma'noli birliklardan tinglovchida voqelik yoki shaxs haqida kuchaytirilgan salbiy taassurot qoldirish uchun foydalaniladi.

Olimlarning fikrlaridan kelib chiqqan holda shuni ta'kidlash joizki, dunyo tilshunosligida disfemizm evfemizmning zidi sifatida qaraladi va o'rganiladi. Disfemizmlar kam qo'llanilganligi sababli olimlar ularni so'kish, haqorat, qarg'ish, masxara qilish tushunchalarini ifodalovchi birlik kabi turlar asosida tahlil etishgan.

Bu turlardan tashqari, disfemizmlar leksik-semantik munosabatlar asosida ham ma'nodosh, zid ma'noli disfemik birliklar, disfemik birliklarning ma'no qamrovi asosida monosemantik, polisemantik, metaforik, metonimik, sinekdoxik, vazifadoshlik kabi turlar asosida ham o'rganilgan. Shuningdek, disfemik birliklarning shakliy tuzilishiga ko'ra ham tasniflash lozimligi olimlar tomonidan aytib o'tilgan. Ya'ni so'z shaklidagi, ibora shaklidagi, so'z birikmasi shaklidagi, gap shaklidagi disfemizmlar ham borligi va ularni ilmiy nuqtayi nazardan o'rganish lozimligi ta'kidlangan. [2.38]. Ushbu maqolamizda evfemizmning aksi hisoblangan disfemizm va uning she'riyatdagi o'rni xususida fikr yuritimiz. Boshqa til birliklari kabi disfemizmlarni ham she'riyatda uchratish mumkin. Ular milliy mentalitet ifodasi sifatida barcha xalqlarda shaxsni turlicha salbiy bo'yoq bilan ifodalash, voqelikka munosabat istagi ustun kelganda, tilda mavjud til birliklaridan (ya'ni disfemizmdan)



zamonaning xalq manfaatlariga teskari bo'lgan siyosati, jamiyatdagi nomaqbul kishilarning holati, kuchli tanqid ostiga olinganda foydalaniladi. Maqsad ularga kuchli zarba berish va xalq madaniy muloqati bilan muvofiqlashtirish va bunday insonlarni tarbiyaga chaqirishdan iboratdir. Bunday mazmundagi she'rlarni barcha shoirlar ijodida uchratish mumkin. Masalan, Muhammad Yusufning quyidagi she'rida shunday satrlar mavjud:

Kazzob Stalindan zorlanmang hadeb,
U ham farzandidir bitta insonning.
Bilmoqchi bo'lsangiz, **qabri** qayda deb,
Laganbardorlardan so'rang Cho'lponni...
Otabek Kumushin ko'zlarin yopib,
O'zi ham ortidan qilgach safarlar.
Qodiriy boboning qo'llarin o'pib,
Chohga itargan ham – laganbardorlar.
Ular **Iblis** bilan tili bir o'rtoq,
Ular **Azroilga** sodiq choparlar.
Avval Usmonlarni sotib, keyinroq
Faryod ko'targan ham – laganbardorlar.
Yov nadir? Zo'r kelsa **o'ldiradi yov**,
Bular **qon so'rguvchi iskabtoparlar**.
Qahorni **qandkasali**,
Oybekni **soqov**
Qilib qo'yganlar ham – laganbardorlar.
Ular ustoziga quldayin kimsa,
Mehribon homiysi shogirdlarining.
O'zi **o'ldirib**, so'ng **mozorigacha**
Ko'tarib borishar **tobutlarini**... [8.35]

Ushbu she'rda qo'llangan **kazzob, laganbardor, choh, iblis, azroil, yov, qon so'rguvchi iskabtoparlar, soqov, qul, o'ldirib, mozor, tobut** kabi leksemalar disfemizmlik ma'nosini ifodalovchi til birliklaridir. She'rda qo'llangan leksik birliklardan shoir o'tmishimizdagi muthish voqelikni ifodalab berish uchun foydalangan. She'rni o'qishda she'rxon ifodalamoqchi bo'lgan davr holatini anglashda qiynalmaydi. Salbiy konnotatsiyaga asoslangan leksemalar orqali shoir aytmoqchi bo'lgan izohni oson va tez anglab oladi. Demak, disfemizmlik xususiyatiga ega bo'lgan leksemalar ham salbiy voqelikni ifodalashda uslubiy vazifaga xoslanib keladi.



Yuqorida she'r misralarida qo'llanilgan ayrim disfemizmlik xususiyatiga ega bo'lgan leksemalarning izohiga to'xtalamiz.

Iblis so'zining internet manbalarda 3 ma'noda qo'llanilishi ta'kidlangan. 1.Odamlarni yo'ldan ozdiruvchi, yomon yo'lga boshlovchi maxluq, shayton ma'nosida, 2. Ko'chma ma'noda iblisga xos xususiyat ma'nosida, 3.Iblisga nisbatlovchi haqoratni ifodalash uchun qo'llanuvchi leksema. Shoir bu she'rida uchinchi ma'nosini ifodalash uchun qo'llagan. Bu leksema orqali sotqin odamlarni iblisga nisbatlagan.

Laganbardor o'z manfaati uchun mansabdor oldida o'zini tuban tutib, unga xushomad qilishga tirishadigan pastkash odam, xushomadgo'y.

Azroil – islom dinida to'rt bosh farishtadan biri (Jabroil, Mikoil va Isrofil bilan birga), jon oluvchi farishta ma'nosida qo'llanilishi internet manbalarda berib o'tilgan. Bu so'zlar salbiy konnotativ ma'nosi bilan o'tmish voqelikni, insonlar xususiyatini ifodalash uchun qo'llanilgan.

Muhammad Yusufning yana bir she'rida shunday satrlar bor:

...**Tamagirni** tortqilab,

Nafsi qo'ymas deydilar.

Nokas o'zi to'ysa ham,

Ko'zi to'ymas deydilar...(8.128]

Tamagir so'zi "O'zbek tilining izohli lug'ati"da birovdan narsa kutish, birovdan o'lja olishga bo'lgan intilish, hirs, birovdan tama qilishga o'rgangan inson ma'nosida qo'llanilishi misollar asosida berilgan. [3. II,11].

Nokas bu so'zga ham "O'zbek tilining izohli lug'ati"da ikki ma'nosi: 1. vijdoni, insofi yo'q, yaramas, qabih, pastkash odam. 2.Birovga hech narsasini ravo ko'rmaydigan, baxil, xasis, qurumsoq odam ma'nosida qo'llanilishi berilgan. [3. I,507]. Muhammad Yusuf she'rida esa nokas so'zi vijdoni, insofi yo'q, yaramas, qabih, pastkash odam ma'nosini ifodalash uchun qo'llanilgan.

Shoira Xosiyat Bobomurodovanning "Qarindoshga qiz bermangiz" she'rida salbiy konnotatsiyaga asoslangan shunday satrlar bor:

...Mayib, majruh, ko'r go'daklar kimga kerak,

Essiz, tussiz, g'o'r go'daklar kimga kerak,

To'lguncha xo'r go'daklar kimga kerak,

Otajonlar, qarindoshga qiz bermangiz,

Onajonlar, qarindoshga qiz bermangiz.[7.177]



Bu she'rda ham mayib, majruh, ko'r so'zlari disfemizmlik ma'nosini ifodalovchi til birliklaridir. Shoir ularni (qarindoshlarini) ogoh etish maqsadida bo'lishi mumkin bo'lgan salbiy voqelikni ifodalashda qo'llagan.

Shoir Rauf Parfi she'riyatida ham disfemizmlik ma'nosini ifodalovchi til birliklarini ko'plab uchratish mumkin. Shoir she'riyatida hech bir shoir ijodida uchramaydigan ilohiy bir dardni kuzatish qiyin emas. Bu dard shoirni qiynaydi, uning qalbiga ozor beradi. Uni hammaga aytgisi keladi, biroq aytishga iymonadi. Sezgir kitobxon qisman bo'lsa-da shoir dardini sezadi, unga hamdard bo'lishni istaydi, ko'mak qo'lini cho'zgisi keladi, dardini tinglab tasalli bergisi keladi, biroq shoir she'rlarida qalbni jarohatlovchi disfemik birliklarning ko'pligi she'rxonga bir oz bo'lsa-da ozor beradi. Bu ozorlar sababini izlashga tushadi, biroq topishga qiynaladi. Qaysidir ma'noda uni tushunishga harakat qiladi. Biroq shoir xalqiga qarata shunday yozadi:

...Ey siz ko'r olomon. Men ruhman, dedim,
Ular ko'rmas meni, holimni so'rmas.
Bani odam ovchi, odamni ovlar,
Tishlab to'ymas, g'ajib to'ymas, bedavo.
Nochor mayitlarning cho'ntagin kovlar,
Pinjida xiyonat, qabohat, g'avg'o.
So'zimga to'ldi sog'inch, so'zim-da yolg'iz.
Ko'zimga to'ldi yolg'iz Alloh jamoli.
Belgi berdi falak, noma'lum bir iz.
Jismimni sindirdi ajal shamoli...
Tobutimni quchib yig'ladingiz, Siz,
Nechun, dunyoning eng go'zal Ayoli?! (Rauf Parfi. Internet manba)

Bu she'rda qo'llanilgan ko'r olomon, tishlab to'ymas, g'ajib to'ymas, bedavo, mayit, xiyonat, qabohat, g'avg'o, ajal shamoli, tobut so'zlari disfemizmlik ma'nosini ifodalab kelgan. Shoir odamlar ozoridan charchagan, ularga o'z tanadoshnomlarini ifodalash uchun disfemizmlik birliklardan foydalangan. Bunday ifodalar faqat Rauf Parfi ijodigagina xos. Shoir odamlarni yaxshilik yo'lida emas, balki yomonlik yo'lida yurishlaridan ozor chekmoqda.

Shoir Usmon Azim she'riyatida ham disfemizmlik ma'nosini ifodalovchi til birliklarini uchratish mumkin. Masalan, shoirning quyidagi she'rida shunday satrlar bor:

Qo'shiq aytar bo'lsam yuragim to'ldi,
Yig'lashdan ko'r bo'ldi oydin ko'zlarim.



Eski do'stlarimning hammasi o'ldi,
Hali tug'ilgan yo'q yangi do'stlarim.
Ko'ylagim hilpirar Vaqt shamolida,
Ikki yonboshimda tubsizlik — yovuz.
Chiqaman yolg'izlik istiqboliga
Boshlarim — lovullab, yuragim — sovib.
Uvlayman samoga boshimni burib,
Ovozim yetmagay ammo Tangriga.
Ko'zi ko'r dunyoday dovdirab yurib,
Kiraman o'zimning muzday qa'ringa.
Meni asta-asta xazon aylar dard —

Meni yuta boshlar torlik, tanqislik... (Usmon Azim. Internet manba)

Shoir Usmon Azim she'riyatida ham kitobxon holatini jumbushga keltiruvchi, gohida g'azabini, gohida jahlini chiqaruvchi disfemizmlik ma'nosini ifodalovchi leksemalarni kuzatish mumkin. Biroq shoirning ruhiyatini tushunishga bo'lgan intilish mavjudligi uchun ham she'riy misralar ma'nosini ilg'ashga harakat qilamiz.

Keltirilgan she'rda ko'r, yovuz, o'ldi leksemalari disfemizmlik ma'nosini ifodalab kelgan.

Shoirning yana bir she'rida shunday satrlar bor:

Bu bog'da kechasi boyo'g'li sayrar —
Nogoh vayronaga o'xshaydi bu bog':
Jinlar zulmat ichra bermalol yayrar,
G'ijirlar ajina ilashgan butoq.
Kechasi dahshatga bu bog' to'ladi,
Yursang, maylayingga urilar zulmat.
Tursang, yuragingga qo'rqinch qo'nadi,
Ariqni to'ldirib, shovullar kulfat.
Ko'z yumsang, bosadi vahima. Bedor —
Anglab-anglab — qochadi uyqu...

Aslida bu bog'ning nima aybi bor?

Bitta boyo'g'lining qilgan ishi — bu. (Usmon Azim. Internet manba)

She'r misralarida qo'llangan boyo'g'li, jinlar, zulmat, ajina, kulfat so'zlari disfemizm hisoblanadi.

Shoir Sirojiddin Sayyidning "Oh Bobur" she'rida ham shunday misralar mavjud:

Buncha uzun oh tortdingiz, oh Bobur,



Muttahamlar dunyosida shoh Bobur...

...Nonko'r beklar, beoqibat mirzolar,

Kimlar Sizga qazmadilar choh, Bobur...(Sirojiddin Sayyid. Internet manba)

She'r misralarida qo'llangan muttahamlar, nonko'r beklar, beoqibat mirzolar, choh so'zlari disfemizm hisoblanadi. O'zbek she'riyatida bunday misollarni ko'plab keltirish mumkin.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, evfemizmlarga zid hisoblangan disfemizmlar badiiylikni oshiruvchi til birligi sifatida she'riyatda keng qo'llaniladi. Shoirlar hayot tarziga yod harakatlar va xususiyatlarni nutqqa qo'pollik qilsa-da voqelikni aniq ifodalash maqsadida leksik birlik sifatida o'rinli foydalanishgan. Bunday til birliklarining uslubiy vazifalarini kengroq tahlil etish esa she'r mazmunini va shoirlar maqsadini aniq ifodalab berish imkoniyatini beradi. Shuning uchun ham leksik birlik sifatida qo'llanuvchi disfemizmlarning she'riyatdagi uslubiy o'rnini kengroq tahlil etish muhim vazifalardan biri sanaladi. She'r tarkibiga qo'pollik qilsa-da, o'quvchi diliga biroz ozor bersa-da bunday til birliklarini to'g'ri tahlil etishimiz kerak, deb o'ylaymiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Резанова А.Н. Дисфемия в английском языке: семантические механизмы и прагматические функции: Автореф... канд. филол. наук. – Санкт-Петербург, 2008. – С. 20.]
2. Qodirova X. O'zbek tilida evfemizm va disfemizm. –Toshkent: Bookmany print. 2022.
3. O'zbek tilining izohli lug'ati, 2-jild. – Moskva, 1981. – 582 b.
4. Т.В.Войко. Эвфемия и дисфемия в газетном тексте: дисс. ... канд. филол. наук. – Санкт-Петербург, 2008.
5. О.С.Ахманова. Словарь лингвистических терминов. – Москва: Изд-во Советская энциклопедия, 1966. - 606 с.
6. О.В.Потапова. Русско-белорусско-китайский, белорусско-русско-китайский и китайско-русско-белорусский словарь-минимум лингвистической терминологии / О. В. Потапов [и др.]. – Минск : БГУ, 2016. – 115 с.
7. 7.Х.Вобомуродова. Vatan yagonadir. –Toshkent, Sharq, 2002, 190 b.
8. 8.Muhammad Yusuf. Saylanma. –Toshkent, Sharq, 2004. 288 b.
9. Rauf Parfi. Internet manba.
10. Usmon Azim. Internet manba.
11. Yuldasheva, S. S. (2022). Взаимоотношение узбекского и каракалпакского языков в языковой ситуации каракалпакстана: генезис и современное состояние. *Journal of Modern Turkish Studies*, 19(1), 79.